



TEMURIY SULTON MIRZO ULUG'BEKNING TARIX SAHNASIDA TUTGAN O'RNI

¹Mustafoqulov Otabek Panji o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

2-bosqich talabasi

E-mail: Mustafoqulovotabek001@gmail.com

Tel: +998953333251,

²Saidmurodov Javohir

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

2-bosqich talabasi

E-mail: Saidmurodovjavohir699@gmail.com

Tel: +998932223526.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7371181>

ARTICLE INFO

Received: 18th November 2022

Accepted: 25th November 2022

Online: 28th November 2022

KEY WORDS

Mizo, Ulug'bek, Shohrux,
Samarqand, Amir Temur,
Movarounnahr, Sheroz,
Zarafshon, Ozarbayjon,
Armaniston, Gavhar Shod og'a,
Chig'atoy, Chig'atoy, Fasih
Havafiy, Hirotda, Abdulaziz,
tamg'a, Tarnob, Jizzax,
Turkistonni, Mo'g'ulistonda,
Kalifga, Shayx Nuriddin,
Qizilravot.

ABSTRACT

Mirzo Ulug'bek — O'rta Osiyo davlat arbobi, Temuriylar turkiy davlatining hukmdori, Shohruh Mirzoning o'g'li, Temurning nabirasi. O'z davrining atoqli matematiki, astronomi, pedagogi va shoiri sifatida tanilgan u tarix va she'riyatga ham qiziqqan. O'rta asrlardagi eng muhim rasadxonalardan biriga asos solgan.

Kirish. Mirzo Ulug'bek hayoti.

Mirzo Ulug'bek Shohrux Mirzoning katta o'g'li 1394-yilning 22-mart kuni dunyoga kelgan. Bu voqea Temurning "besh yillik yurishi" paytida Iroqi Ajamning Sultoniya shahrida ro'y berdi. Temurning zamondosh muarrixlaridan Fosih Havofiyning aytishicha, xuddi kuni bir hodisa ro'y beradi – Amir Temur sohibqironning ikkinchi o'g'li Umarshayx Bag'dod yaqinidagi Xarmatu qabilasini qamal qilish vaqtida o'ldiriladi. Bundan tashqari o'sha yili Shohrux Mirzoning ikkinchi o'g'li (boshqa xotinidan) Ibrohim

Sulton dunyoga keladi¹. Bu voqea Armaniston va Ozarbayjon hududlarida sodir bo'ladi.

Ulug'bekning onasi Gavhar Shod og'a Chig'atoy amirlarida G'iyosiddin Tarxonning qizi edi. Shohrux 1388-yildayoq, ya'ni 10 yoshdalgida uylangan edi. Ulug'bek bolaligida doimo buvisi Saroy Mulk xonimning qo'l ostida bo'ladi. Ulug'bekning yoshligi qorabog'da o'tkazgan. 1404-yilda Samarqandga ko'chib keladi. O'sha yili Amir Temur Ulug'bekni

¹ Fasih Havafiy. Mujmali Fasihi. Toshkent.1980



Muhammad Sultonning qizi O'gay begiga uylantiradi.²

Fasih Havafiy Amir Temur vavotidan keyin tirik qolgan uning farzand va nabiralari 36 nafar ekanligini ta'kidlaydi. Ular orasida eng kuchlisi Shohrux ekanligini ta'kidlaydi. Keyin Temuriy shahzodalar o'rtasida kurash bo'lib o'tadi.

1409-yil bahorida Movarounnahrda vaziyat yanada keskinlashadi. Amir Xudoydot O'ratepa va Shohruxiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinidagi Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil Sulton qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asirga olinadi.

Shu davrda Xurosondagi amirlar isyonini bostirishga ulgurgan Shohrux endi likda butun e'tiborini Movarounnahrqa qaratadi. Chunki u ota yurtidagi hodisalarga loqayd qaray olmasdi. 1409-yil 25-aprelda u Amudaryodan o'tib, Samarqand sari yurish qiladi. Qariyb besh yil davom etgan o'zaro kurash va isyonlar xalqning jiddiy noroziligiga sabab bo'lgan edi. Temuriyzodalar va amirlar o'rtasidagi kurashga xotima berish maqsadida Shohrux boshlagan harakat mamlakat fuqarolarining ko'pgina tabaqalari tomonidan quvvatlanadi. Shu bois Movarounnahrda boshliklarga chek qo'yilib, Movarounnahr va Xurosonda o'z hukmronligini o'rnatadi hamda mamlakatda tinchlik osoyishtalik o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Shohruxning uzoq hukmronligi davrida Amir Temur saltanatining asosiy qismi uning qo'li ostida saqlanib qolsa-da, ammo bu ulkan mamlakat ikki davlatga bo'lingan

edi. Ulardan biri Amudaryodan janubda joylashgan Shohrux boshchiligidagi davlat bo'lib, uning markazi Hirot shahri edi. Ikkinchisi esa Amudaryodan shimolda Movarounnahr va Turkiston hududida Ulug'bek boshchiligidagi davlat bo'lib, Samarqand uning poytaxti edi.³

Ulug'bek (1394–1449) garchi Movarounnahr bilan Turkistonning hokimi deb e'lon qilinsa-da, aslida uning hokimiyati chegaralari dastavval faqat Samarqand, Buxoro va Nasaf viloyatlari bilan gina cheklanardi. Chunki Shohrux tomonidan Farg'onadan to O'zgan gacha – Mirzo Ulug'bek Amirak Ahmad, Hisori Shodmon esa Muhammad Jahongir ixtiyoriga berilgan edi. Turkiston Shayx Nuriddinning tasarrufida edi. O'sha vaqtda na Ulug'bek va na Shohruxni tan olardi. Shuning uchun ham mamlakat notinch edi. Shayx Nuriddin Turkiston bilan qanoatlanmaydi. 1410-yil 20-aprelda Samarqand yaqinida Qizilravot mavzeyida Shayx Nuriddin boshchiligidagi isyonkor ittifoqchilar bilan Mirzo Ulug'bek qo'shinlari o'rtasida jang bo'ladi. Jangda Ulug'bek mag'lubiyatga uchrab, Kalifga tomon chekinadi. Shohrux Samarqandga yetib kelib, Shayx Nuriddin isyonini bostiradi. 1412-yildan boshlab Movarounnahr va Turkistonni to'liq boshqarish 18 yashar Ulug'bek qo'lga o'tadi. Ulug'bek 1414-yilda Farg'ona va Koshg'arni egallaydi. 1413-yilda Shohrux tomonidan Xorazm Oltin O'rda xonlari tasarrufidan qaytarib olingach, Ulug'bek davlatining g'arbiy va janubiy chegaralarining xavfsizligi barqarorlashgan bo'lsa-da, ammo uning shimoli g'arbiy va shimoli sharqiy tomonlari hali xavotirli edi. Shu sababli Ulug'bek Dashti Qipchoqda

² Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent. 1997

³ Ahmedov A. Ulug'bek hayoti va faoliyati. (1394–1449). Toshkent. 1991.



boshlan gan o'zaro nizoga hamda Mo'g'ulistonda avj olgan ichki kurashlarga jiddiy e'tibor berishga va aralashishga majbur bo'ladi. Ulug'bek otasining rizosi bilan 1425-yilning erta bahorida Mo'g'uliston ustiga yurish boshlaydi. Issiqko'l yaqinida sodir bo'lgan to'qnashuvda Ulug'bek mo'g'ullar ustidan g'alaba qozonadi va mahalliy muxolafatchi kuchlarni bartaraf etib, mamlakat sharqiy chegaralarini mustahkamlaydi.⁴ Qo'lga kiritilgan o'ljalor orasida ikki bo'lak nefrit toshi ham bor edi Keyinchalik bu nefritdan Amir Temur maqbarasi uchun qabrtoshi yasattirildi. Mo'g'ulistonda bo'lgan bu urushda Ulug'bek qozongan g'alabaning nishoni tarzida Jizzax yaqinida Ilono'tti darasi ichida hijriy 828-yilda (1425) Ulug'bek tomonidan qoyatoshga yozdirilgan o'ziga xos "zafarnoma" hozirgi kungacha saqlangan. Dashti Qipchoqqa qarshi qilingan yurishda esa Ulug'bekning omadi kelmaydi. Otasi Shohruxning katta qo'shin bilan yetib kelishigina Ulug'bekni halokatdan saqlab qolgan.

1447-yil Shohrux Mirzoning vafotidan so'ng Temuriy shahzodalar Ulug'bekka nisbatan harakat boshlab yuboradi. 1447-yilning bahorida Alouddavla Ulug'bekning katta o'g'li Abdullatifning qo'shinini tor-mor qilib, uni asirga oladi. Ulug'bek Alouddavla bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Unga ko'ra Abdullatif ozod qilinadi, Ulug'bek esa Hirot va Xurosonga bo'lgan da'vosidan voz kechadi. Biroq ko'p o'tmay sulh buziladi. 1448-yilning bahorida Ulug'bek va Abdullatifning 90 ming kishilik birlashgan qo'shini Hirotga yurish qiladi. Tarnob yaqinida bo'lgan jangda Alouddavla qo'shini tor-mor keltirilib, Hirot qo'lga

kiritiladi. Ulug'bek Xurosonda Abdullatifni qoldirib, o'zi Samarqandga qaytadi. Chunki Movarounnahrda Ulug'bekka qarshi isyon boshlangan edi.⁵

Abdullatif, garchi bobosi Shohruxning Hirotidagi taxtiga o'ti rishga muyassar bo'lsa-da, ammo unda otasiga nisba tan adovat paydo bo'ladi. G'alaba to'g'risida tevarakatrofga yuborilgan fathnomalarda Abdullatifning nomi inisi Abdulazizdan keyin tilga olingani, Ixtiyoriddin qal'asidagi xazina Ulug'bek tomonidan olib qo'yilgani o'ta shuhratparast hamda mol-dunyoga o'ch Abdullatif uchun bahona bo'ladi. U otasining dushmanlari bilan yashirin tarzda til biriktirib, zimdan Ulug'bekka qarshi harakat boshlaydi. Abdullatif Hirotida faqat o'n besh kun hokimlik qiladi. Abulqosim Bobur qo'shinining shaharga yaqinlashib kelayotganidan xabar topib poytaxtni jangsiz bo'shatib, Movarounnahr tomon qochadi. Ulug'bek farmoni bilan Balxga noib qilib tayinlangach, viloyatda "tamg'a" solig'ini bekor qilib, savdogarlarni o'z tarafiga og'dirib oladi. Otasidan norozi bo'lgan amirlarni atrofiga to'playdi. Hatto Abulqosim Bobur bilan bog'lanib, uni birlashib Ulug'bekka qarshi kurashga undaydi. Shunday qilib, Abdullatif o'z otasiga qarshi ochiqdan ochiq dushmanlik yo'liga o'tadi. Otasining qiyin ahvolda qolganini kuzatib turgan Abdullatif qulay fursatdan foydalanib, bosh ko'taradi va Amudaryodan kechib o'tib, Termiz, Shahrisabz va Huzorni osongina zabt etadi. So'ng ra Samarqandga qarab yo'l oladi. 1449-yil oktabrda Damashq qishlog'i yaqinida qattiq jang bo'ladi va bu jangda Ulug'bek yengiladi, bundan foydalangan

⁴ B.Ahmedov Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent,1996.

⁵ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent.1996



Abdulatif otasini o'ldiradi. Ertasi kuni ukasi Abdulazizni o'ldiradi. Shundan keyin "padarkush" "ota qotili" deb lanatlanadi. Lekin Abdulatif hukmronligi uzoqqa cho'zilmaydi 1450-yilning 9-may sanasida ig'vochilar tomonidan o'ldiriladi.

Mirzo Ulug'bekning ilm-fanga qo'shgan hissasi. Ulug'bekning ilmga qiziqqanligi va mamlakatning ravnaqini ko'zlaganligi tufayli yangi usuddagi bilim yurti – maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o'zida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa barpo etadi.

Ulug'bek madrasaga mudarris va olimlarni to'play boshlaydi va shu tariqa uning Samarqanddagi astronomik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrislari ilmiy ishlariga qulay sharoit va panoh izlab Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug'bek Xurosonning Koshon shahridan G'iyosiddin Jamshid Kopshyni chaqirtiradi. Samarqandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to'plangan olimlarning soni, 1417 yilga kelib 100 dan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me'morlar bor edi. Lekin astronomiya va matematika sohasidagi olimlar sharafliroq va obro'liroq edi. Ular orasida Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.⁶

1420 yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo'ladi. Zayniddin Vosifiy "Badoi' ul-vaqoi'" kitobida aytishicha, birinchi mudarris etib mavlono Shamsuddin Muhammad Xavafiy tayinlanadi. Madrasada asosiy ma'ruzalarni

Qozizoda, Ulug'bek, Koshiy va keyinroq Ali Qushchi o'qiydilar.⁷

Madrasaga asos solinganidan to'rt yil keyin Mirzo Ulug'bek Qozizoda Rumiy, Mavlono G'iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Kosho-niylar bilan maslahatlashib, Ko'hak tepaligida Obi Rahmat arig'ining bo'yida rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi".

Rasadxona qurilishi 1424 yildan 1429 yilgacha davom etadi. Rasadxona bitishi bilan astronomik kuzatishlar boshlanib ketadi. Rasadxona bilan madrasaning birgalikdagi faoliyati Ulug'bek ilmiy maktabida astronomiya va matematikani o'rta asrlar davrida eng yuqori pog'onaga ko'tarish imkonini berdi.⁸

Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashhuri uning "Zij jadidi Ko'ragoniy"i bo'lib, bu asar "Zij jadidi Ko'ragoniyi Ulug'bek", "Zij jadidi Ko'ragoniyi jadidi Ko'ragoniy" deb ham ataladi. "Zij jadidi Ko'ragoniy"dan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", astronomiyaga oid "Risolayi Ulug'bek" (yagona nusxasi Hindiston-da, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asaridir.⁹

Ulug'bek "Zij jadidi Ko'ragoniy"i o'z tarkibiga ko'ra VIII – IX asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirsa ham ilmiy darajasi ularga nisbatan beqiyos balanddir. Bu asar ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 sobita yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan

⁷ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent.1996

⁸ A.Abdurahmonov.Ulug'bek Akademiyasi. Toshkent.1994

⁹ Mirzo Ulug'bek. Tarixi arba ulus. Toshkent. 1994

⁶ Fasih Havafiy. Mujmali Fasihi. Toshkent.1980



jadvallardan iborat bo'lib, muqaddimaning o'zi mustaqil to'rt qismni tashkil qiladi. Muqaddimaning boshida Qur'ondan yulduzlar va sayyoralarga taalluqli oyatlar keltiriladi.

Hozirgi kundagi ma'lumotlarga ko'ra "Zij jadidi Ko'ragoniy"ning Yuzga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O'rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki matematik asar bunchalik ommaviy va keng ma'lum bo'lmagan. "Zij jadidi Ko'ragoniy" musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o'rganilgan va sharhlangan. Uni sharhlagan limlardan quyidagilarning nomlarini eslatish mumkin: Shamsiddin Muhammad ibni Abul Fath as-So'fiy al-Misriy (vaf. tax. 1495), Abulqodir ibni Ro'yoni Lahijiy (vaf. 1519), Miram Chalabiy (vaof. 1525), Abdulali Birjandiy (vaf. 1525), G'iyosiddin Sheroziy (vaf. 1542).

"Zij jadidi Ko'ragoniy"ning G'arbiy Ovro'po faniga ham ta'siri katta bo'ldi. Umuman olganda G'arbiy Ovro'po Temur va uning farzandlarini, ayniqsa Ulug'bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istanbuldagi faoliyati tufayli Ulug'bekning olimligi haqidagi xabar ham Ovro'poga tarqaladi. Shunday qilib Temuriylar sulolasi butun dunyo tarixida o'chmas iz sifatida qolganligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bizning tariximiz to'g'irisida gap ketganda Amir Temur va Temuriylarni esga olishimiz tabiiy holatdir. Shubhasiz bu sulola tariximizda katta o'ringa ega hisoblandi. Aynan vatanimiz hududida bu davrda Movarounnahr deb atalmish katta davlat mavjud bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Bu davlat qo'shni hududlar bilan birga salkam Osiyo qit'asini egallagan yirik imperiyani shakllantira olgan va uning yaxlitligini taminlaganini ko'rishimiz mumkin. Amir Temur vafotidan so'ng shahzodalar o'rtasida kurash avjiga chiqqanligi haqida bilamiz. Salkam besh yil davom etgan kurashdan so'ng Shohrux Mirzo va uning o'g'li Mirzo Ulug'bek Siyosat maydoniga chiqadi. Lekin oldingi davlatning ko'plab qismlarini yo'qotadi.

Mirzo Ulug'bek Movarounnahr taxtida qirq yil o'tirdi. Uning hukmronligi yillarida davlatni odilona boshqarganligini ko'rishimiz mumkin. Undan xalq rozi bo'ladi. Sababi Mirzo Ulug'bek davlatda obodonchilik ishlarini olib bordi va ilm-fan homiysi sifatida nom qoldirdi. Ammo uning taqdiri noxush holatda yakuniga yetadi. Mirzo Ulug'bek Samarqandga olim-u fuzarolarni taklif qilish bilan birga o'zi ham olimlar qatorida katta ilmiy izlanishlar olib borganligini ko'rishimiz mumkin. Mirzo Ulug'bek nafaqat sulton balki yirik olim ham ekanligini tarixda isbotlab ketgan!

References:

1. Fasih Havafiy. Mujmali Fasihi. Toshkent.1980
2. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma.Toshkent.1997
3. Ahmedov A. Ulug'bek hayoti va faoliyati. (1394-1449). Toshkent. 1991.
4. Ahmedov B. Temur va Ulug'bek davri tarixi. Toshkent,1996.
5. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent.1996



6. Abdurahmonov A. Ulug'bek Akademiyasi. Toshkent.1994
7. Mirzo Ulug'bek. Tarixi arba ulus. Toshkent. 1994
8. Nazirov B. Temuriy hukmdorlar: Mirzo Shoxrux va Mirzo Ulug 'bek. Risola //Scienceweb academic papers collection. – 2022
9. Nazirov B. Aburazzoq Samarqandiyning “Matlai sadayn va majma ul bahrayn” asarida tarixiy shaxslar talqini //Scienceweb academic papers collection. – 2022.
10. Назиров Б. С. СУРХОИ ВОҚАСИ-ПАЙҒАМБАР АВЛОДЛАРИ МАҚОН ТОПГАН ЮРТ //MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS. – 2019. – С. 67.
11. Назиров Б. С. СУРХОИДАРЁ ВИЛОЯТИДА ИЛҚ ОТ СПОРТИ КЛУБЛАРИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – Т. 4. – №. 11.
12. Nazirov B. S. MASTER WHO DEVOTED HIS LIFE TO SPORTS //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 6. – С. 78-82.
13. Nazirov B. S. The first horse clubs in surkhan oasis //ACADEMICIA:AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1228-1231.
14. Nazirov B. S. Establishment of a new legal system in the field of physical culture and sports in Uzbekistan in 2017–2020 //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 10. – С. 1081-1084.
15. Nazirov B. S. O'ZBEKISTONDA 2017-2020 YILLARDA JISMONIY MADANIYAT VA SPORT SOHASIDA YANGI ME'YORIY-HUQUQIY TIZIMNING YO'LGA QO'YILISHI //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 4. – С. 1687-1693.
16. Назиров Б. С. МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ СОҲАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИСЛОҲОТЛАРНИНГ ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛИ //ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ. – 2021. – №. SI-3.
17. Nazirov B. S. The first horse clubs in surkhan oakh //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – Т. 11. – №. 10. – С. 1441-1446.